

G'ARBDA MILLAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MUSHOG'ADASI

*Bozorov Asliddin Kamoliddin ógli - TDTrU talabasi
Isroilov Avazbek Azamat ógli - TDTrU talabasi*

Bugungi globallashuv sharoitida milliy identifikatsion jarayonlarning kuchayishi, etnogenez va millatning kelib chiqishi masalalarini o'rghanishdagi mavjud metodlarning yetarli natija bermayotganligi mazkur masalaga yangi paradigmal yondashuvlarni taqozo etmoqda. G'arb falsafasidagi mavjud kontseptsiyalar ijobiy ma'noda asos vazifasini bajarishi mumkin. XX asrning oxiridan boshlab ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida etnomilliy masalalarni o'rghanishga doir bir qancha kontseptsiyalar shakllandı.

Tarixga nazar tashlasak, G'arbiy Yevropada "millat" atamasi XV-XVI asrlarda madaniyat va til birligiga asoslangan jamoa tushunchasi sifatida paydo bo'ldi. Millatni zamonaviy talqinda tushunish XVIII asr Fransuz revolyutsiyasidan keyin, milliy o'zlikni anglash jarayonida yuzaga kelgan. Millat shakllanishi bilan bog'lik munozaralar hamda etnomilliy nazariyalarga tegishli adabiyotlar yaratish XIX asrning ikkinchi yarmidan avj oldi.

Bu davrda "etnos", "etniklik", "millat" tushunchalarining ta'rifiga ikki xil yondashuv vujudga keldi. Ularni shartli ravishda etnik (nemischa) va siyosiy (fransuzcha) yondashuvlar deb klassifikatsiyalash mumkin. Millat ta'rifiga etnik yondashish nemis faylasufi I.Gerder va nemis romantiklari asarlarida o'z ifodasini topgan. I.Gerder fikricha, millat umumiyligi kelib chiqish, umumiyligi madaniyatga ega bo'lgan insonlarning tabiiy uyushmasi bo'lib, milliy ruhiyatni o'zida aks ettiradi hamda "qon va zamin" birligi asosida vujudga keladi. Faylasuf millatning o'ziga xos dunyoqarashi, umummadaniy qadriyatlarini millat shakllanishining asosiy omili deb bilgan.

Fransuz olimi Ernest Renan 1882-yil 11-martda Sorbon universitetidagi "Millat nima?" mavzusidagi ma'rzasida: -Millat bu o'tgan davr va kelajakdagi qurbanliklar evaziga shakllangan buyuk hamjixatlikdir», deb ta'riflaydi. Uning ta'kidicha, millat yuragida alangasi bor, o'tkir tafakkur egalari bo'lgan insonlar ongining mahsulidir.

Postsovet muhitida postmodernizm (etnoslar taraqqiyotini sotsial antropologiya yo'nalishida tadqiq qiluvchi oqim) va primordializm (etnoslar taraqqiyotini rus etnologiya maktabi an'analarini asosida e'tirof etuvchi oqim) o'rtasidagi bahslar tufayli etnos, etniklik, millat shakllanishi, milliy identifikatsiya masalalarini o'rghanishga bo'lgan ehtiyoj ortdi.

Sho'ro davrida etnos va millat tushunchalariga bo'lgan qiziqish XX asrning 60-yillarida kuchaydi. Bunga Yu.Bromley, V.Kozlov, V.Alekseev, L.Gumilevlarning tadqiqotlari yaqqol misol bo'ladi. Rus etnologiya maktabining vakili Yu.Bromley etnos, millat tarixiy jarayonlarning natijasi, ijtimoiy taraqqiyot mahsuli deya

ta'kidlagan. Primordializmning sotsiobiologik yo'nalishi vakili amerikalik sotsiolog va sotsial antropolog P'er van den Berge millatning bioenergetik tabiatiga haqida ta'limot yaratdi. Uning fikricha, etnoslarning mavjudligi insonlarning biologik mohiyatidan kelib chiqqan zaruriyatdir. Rus olimi L.Gumilev ham biologik primordializmning varianti sifatida «etnik maydon» gipotezasini (passionar nazariya) ilgari surdi. U “etnos - kishilarning tabiiy ravishda shakllangan uyushmasi bo'lib, a'zolari o'ziga xos xulq-atvor steriotiplariga ega. Ular o'zini analogik uyushmalarga qarama-qarshi qo'yadi, bu ziddiyat esa etnoguruhlardagi o'zaro hurmat-e'tibor hissi bilan belgilanadi”, -deb yozadi. L. Gumilevning ta'kidlashicha, etnoslar yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib, etnik tizim superetnoslar tarkibiga kiradi, o'z o'rniда etnosning unsurlari subetnoslar, konviktsiyalar, konsortslardan iboratdir.

Postmodernizm oqimlari orasida konstruktivizm kontseptsiyalari alohida diqqatga sazovordir. Konstruktivistik yondashuv etnos va millatni sun'iy tuzilma, insonlarning maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasi sifatida ta'riflaydi. Taniqli ingliz olimi Ernest Gellnerning yozishicha, «Millatni inson yaratgan, millat inson ongingin mahsulidir», “millat ilmiy konstruktsiya bo'lib, o'ta emotsional va sezish, anglash qiyin bo'lgan “uyushma”lardan tuzilgan. Bular jamoaga daxldorlik va birdamlik hissi, umumiyy meros va ixtiyoriy identifikatsiya, tanlash huquqidir”.

B.Andersen «Tasavvurdagi hamjamiyatlar» nomli fundamental tadqiqotida millatni «tasavvurdagi siyosiy hamjamiyat sifatida tavsiflaydi. “Tasavvurdagi hamjamiyat”, ya'ni millatning vakillari o'zaro bevosita aloqa o'rnatmaydi, shuning uchun, millatning shakllanishi ham, mavjudligi ham bizning tasavvurimizda. Tasavvurlar yolg'on emas, aksincha, u ijod natijasi, yaratilish demakdir.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida global muammolarning keskinlashib ketishi, geosiyosiy, ekologik, etnik, milliy munosabatlardagi muammolar millat, milliy identifikatsiya jarayonlari masalasiga tegishli ko'pgina tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu borada G'arb faylasuflarining etnomilliy kontseptsiyalari, milliy identifikatsion jarayonlar xususidagi qarashlari va unga daxldor fikrmulohazalarini qiyosiy o'rganish, O'zbekistondagi milliy identifikatsion jarayonlar istiqbolini bashorat qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy o'zlikni anglash, millatning ma'naviy komillikka erishishi davlat suverenitetini mustahkamlash va milliy taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).

2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ү. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. К. Ү. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҶНАВИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ү. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ү. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ү. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. Қ. Ү. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ү. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 11-14.
13. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
14. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
15. 6. O'Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIyatning" AXAMIYATI. *World Scientific Research Journal*, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>
- Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional

<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>

14. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
15. 6. O'Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIyatning" AXAMIYATI. *World Scientific Research Journal*, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>
- Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional

- vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
16. 14. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.
17. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
18. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2
19. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.